

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MEDIA TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI: "ANTONIMLIK SINONIMLIK OMONIMLIK" DOIRASIDA

**Nosirov Nasibillo Xalilillo o'g'li**

*Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi*

So'z tilning ma'no bildiradigan asosiy birligidir. So'z va so'z birikmasi aniq predmetlarni, mavhum tushunchalarni, emotsianni bildiradi. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'z va iboralarning yig'indisi lug'at tarkibi yoki leksika deyiladi. "Science and Education" Scientific Journal June 2021 / Volume 2 Issue 6 www.openscience.uz 458

Leksikaloga o'zbek tilining tarkibini o'rganadigan bo'limdir. Leksikaloga lug'at sostavidagi so'zlarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish aktivligi, boyib borishi, ba'zi so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi, ma'no ko'chish hodisasi kabilarni o'rganadi. Shu sababli leksikaloga lug'at ustida ishslash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi.

Manbalarning ta'kidlashicha, leksikologiya o'zbek tilshunosligida bir butun yo'naliш va alohida bob sifatida XX asrning o'rtalaridan boshlab shakllangan.

«Leksika» so'zi yunoncha «leksis» so'zidan olingan bo'lib «so'z» degan ma'noni bildiradi. «Leksikaloga» so'zi esa «leksis» - «so'z», «logos» - «talumot» degan ma'nolarni bildiradi. Demak, leksikaloga so'z va uning ma'nosini haqidagi ta'lilot, fan ekan. - So'z va uning ma'nosini haqida. «Ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush va tovushlar birikmasi so'z sanaladi.» So'zning ikki tomoni: moddiy tomoni (tovush yoki harflar ketma-ketligi) va ma'no tomoni mavjud. So'zning shakli, ya'ni tashqi tomoni tovush [harf] lardan iborat bo'lib, bu xususiyatlari fonetikada o'rganiladi. So'zning ichki tomoni esa unda ifodalangan ma'nolar bilan tavsiflanadi».

So'zning borliqdagi shaxs, narsa, belgi, harakat, miqdor, holat payt, o'rinn, sabab kabi tushunchalarni ifodalashi atash [lug'aviy] ma'nosini deyiladi. Chaqaloq [yangi tug'ilgan inson], arslon[yirtqich hayvon], oq [rang], yugurmoq [tez harakatlanmoq], olti[miqdor nomi], kechqurun [payt], sekin[holat], yuqorida [o'rinn], noiloj [sabab]. Mustaqil so'zlarga atash ma'nosiga egadir Atamalar, kasb-hunarga oid so'zlar faqat bir manoni ifodalash uchun qo'llaniladi. Bular bir manoli so'zlardir. Masalan; payola - choy ichishga mo'ljallangan idish; leksikologiya - so'z manolarini o'rganuvchi fan manosidagina qo'llanadi. So'zlar ikki va undan ortiq manoni ifodalasa ko'p manoli sanaladi. Avval bir manoda qo'llangan so'zning ko'p manolarda ishlatilishi ko'p manolikni vujudga keltiradi. Masalan; qochoqni tutmoq, parda tutmoq, ro'za tutmoq, suv tutmoq, o'zini tutmoq. So'z va leksema Ma'lum ma'no bilan bog'langan va

morfologik shakillangan tovushlar birikmasi Grammatik ma'nosiz, faqat leksik (lug'aviy) ma'no bildiruvchi til birligi leksema hisoblanadi.

So'z- marfologiya birligi sifatida, leksema esa leksikalogiya birligi sifatida bir-biridan farqlanadi. So'zlar leksema va grammatic qo'shimchalariga bo'linadi. Lug'atlarda bosh so'z sifatida leksemalar beriladi. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. Ayrim so'zlar gapdan tashqarida ham, gap ichida ham bir ma'noni bildiradi. Bunday so'zlar bir ma'noli (monosemantik) so'zlar deyiladi. Gapdan tashqarida bir ma'noni, gap tarkibida boshqa ma'noni ifodalaydigan so'zlar ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlar deyiladi.

Bilamizki, semantika so'zlarning botiniy ma'nosini o'rganadigan bo'lim hisoblanadi. Va albatta, leksik-semantika atamasi mavzuimizning asosiy taxliliy qismlaridan biri hisoblanadi. Leksik-semantika lingivistik sematikaning kichik bir sohasi bo'lib, so'z ma'nolarini o'rganadi va shu bilan birgalikda so'zlarning ma'no tuzilishini, qo'llanilishlari o'rtaqidagi munosabatlarni o'rganadi. Leksik-semantikaning taxlil birliklari leksik birliklar bo'lib, bularga nafaqat so'zlar balki, qo'shimchalar, qoshma so'zlar, iboralar va boshqalar kiradi.

Leksik birliklar tildagi so'zlar katalogini leksikani o'z ichiga oladi, leksik semantika esa leksik birliklarning manosi, til yoki sintaksisning tuzilishi bilan qanday bog'liqligini ko'rib chiqadi.

Leksik –semantikani o'rganish quydagilarni ko'rib chiqadi.

- Leksik birikmalarning tasnifi va bo'linishi
- Leksik-semantika tarkibidagi farq va oxshashliklar tillararo
- Leksik ma'noning gap ma'nosini va sintaksisga munosabati

Leksik munosabatlar bu ma'nolarning bir biri bilan qanday bog'liqligi bo'lib, leksik qismlarda kategoriya(lexsik va sintaktik) shakl va ma'no haqida ma'lumotlar mavjud. Bu kategoriylar bilan bog'liq ravishda semantika keyinchalik leksikadagi har bir leksik elementga tegishlidir. Leksik bo'laklarning ma'nolari bir lug'aviy birlikdan yoki ularni o'rab turgan muhitdan olinganligiga qarab ham semantic jihatdan tasniflash mumkin. Leksik qismlar bir biri bilan muntazam bog'langan holatda bo'ladi. Leksik elementlar orasidagi bazi munosabatlarga giponimiya va gipernymiya, sinonimiya, antonimiya, shuningdek omonimiya kiradi. Shu o'rinda semantic maydon tushunchasiga ham izoh berib o'tishni joiz deb topdik. Birinchi marta 1930-yillarda Trier o'zaro bog'liq ma'noga ega bo'lgan so'zlar guruhini kattaroq konseptual soha ostida tasniflash mumkinligini taklif qildi va bu butun birlik semantic maydon sifatida tanilgan. Tilshunoslikda semantic soha ma'nosini jihatidan bir yoki birnecha xususiyatlarga ega bo'lgan so'zlar guruhini tashkil etuvchi so'zdir.

Tilimizda ko'plab so'zlar yoki leksik birliklar mavjud bo'lib ular orasida biz o'xshash jihatlarini taniy olamiz.

**Masalan:** darvoza, devor, damba bular bir xil semantic maydonga ega chunki 3ta so'z to'siqlarni belgilaydi.

Barcha sozlar turli xil leksik maydonlarga tegishli bo'ladi. Leksik maydon va semantic maydon atamalari odatda bir-birining o'rnida qo'llanilsada, Zigfrid Uayler bunga quyidagicha ta'rif beradi.

- Leksik maydon bu- leksemalar tomonidan tuzilgan tuzilma
- Semantic maydon esa- leksemalarda ifoda topadigan asosiy ma'nodir

Semantic maydonni tashkil etuvchi elementlar o'rtasidagi munosabatlarga qarab uni quydagicha tavsiflash mumkin.

1. Yopiq semantic maydon- bunga yangi atama va so'zlarni qoshib bo'lmaydi chunki u to'liq maydonni tashkil qilib bo'lgan.


Masalan: xafthaning 7 kuni; yilning 12 oyи

2. Ochiq semantic maydon- bunga yangi terminlarni qo'sha olamiz .

Masalan: mavzuimiz atamalaridan biri computer leksikasini olaylik


Kompyuter qismlari: kamera, klaviatura, sichqoncha, monitor, modem.... .

Izlanishlarimiz natijasiga ko'ra mass medianing manosi juda keng izohlangan va biz har tomonlama taxlil qilgan holatda buni 3ta asosiy turini quyidagi diagramma doirasidagi havola qilamiz



| Printed media             | Electronic media | New age media    |
|---------------------------|------------------|------------------|
| Newspapers                | Recordings       | Internet         |
| Magazines                 | Cinema           | Mobile phones    |
| Books, novels             | Radio            | Computers        |
| Journals and publications | Television       | Electronic books |

Quyidagi diagrammada esa o'zbek tilidagi ommaviy axborot vositalarining asosiy turlari berilgan.



| Dastlabki media | Mass media    | Raqamli media | Elektrik media | Bosma media    |
|-----------------|---------------|---------------|----------------|----------------|
| Yozuv           | Kinomatograf, | Kompyuter     | Televizor      | Bosma nashrlar |
|                 | Televideniya  | internet      | Telefon        | Litografiya    |
|                 | Radio         |               | Ovozli yozuv   | Fotografiya    |

Demak, ushbu qiyosiy taxlil natijalariga ko'ra ingliz va o'zbek tilidagi ommaviy axborot vositalarining qamrovi deyarli bir xil.

Biz yuqorida giponimiya va gipernymiya atamaliri haqida to'xtaldik, bilamizki, ushbu atamalar umumiy atamalar turkumiga kiruvchi aniqroq atamalar o'rtaсидаги munosabatni bildiradi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Нурмонов А. Танланган асарлар III жилдлик. I жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б.39.
- Князева Е.Н., Курдюмов С.П. Синергетика как новое мировидение: диалог с И. Пригожиным. // Вопросы философии. – 1992. – №12. – С. 3-20.
- Нурмонов А., Раҳимов А.Лингвосинетгетикага кириш. – Т.: Академнашр, 2013. – Б.45.

4. <https://studyport.ru>
5. **Үринбаев Б.** Вопросы синтаксиса узбекской разговорной речи. Автореф. дисс... д-ра филол.наук. – Т., 1974; **Үринбаев Б.** Ўзбек сўзлашув нутки синтаксиси масалалари. –Т.: Фан, 1974; **Үринбаев Б.** Ҳозирги ўзбек сўзлашув нутқи. 1-2 қисмлар. – Самарқанд: СамДУ, 2006; **Үринбоев Б., Үринбоева Д.** Ҳозирга ўзбек тилининг сўзлашув услуби. –Т.: Фан, 1991. – 91 б; **Бозорбоев К.** Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари. Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Самарқанд, 2000. – 24 б.; **Мусаев А.** Ўзбек сўзлашув нутқи услубида гап бўлаклари тартиби. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 2000; **Турсунпўлатов М.** Лексика узбекской разговорной речи. Автореф. дисс... канд. Филол .наук. – Т., 1982. – 24 с; **Ҳазратқулов А.** Ўзбек тилида диалогик нутк синтаксиси. – Т.: Фан, 1991.
6. Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. Монография. – Самарқанд: СамДУ, 2010. – Б.32.